

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI

RAZZOQOV NURMUHAMMADXON SAYIDMAXSUD O'G'LI

KATTA ORALIQLI FAZOVIIY QOBIQ KONSTRUKSIYALAR
QO'LLANILGAN NOYOB BINOLARNING MONTAJ
JARAYONI E'TIBORGA OLINGAN
KUCHLANISH – DEFORMATSIYALANISH HOLATLARI

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Razzoqov Nurmuhammadxon Sayidmaxsud o'g'li

Katta oraliqli fazoviy qobiq konstruksiyalar qo'llanilgan noyob binolarning montaj jarayoni e'tiborga olingan kuchlanish - deformatsiyalanish holatlari5

Раззоков Нурмухаммадхон Сайидмахсуд угли

Напряженно - деформированное состояние уникальных большепролетных оболочечных конструкций зданий с учетом условия монтажа23

Razzakov Nurmukhammadkhon Sayidmahsud og'li

Stress-strain state of unique large - span shell structures of buildings, taking into account the assembly conditions41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works45

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA – QURILISH UNIVERSITETI

RAZZOQOV NURMUHAMMADXON SAYIDMAXSUD O'G'LI

KATTA ORALIQLI FAZOVIIY QOBIQ KONSTRUKSIYALAR
QO'LLANILGAN NOYOB BINOLARNING MONTAJ
JARAYONI E'TIBORGA OLINGAN
KUCHLANISH – DEFORMATSIYALANISH HOLATLARI

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attessiatiya komissiyasida B.2022.1.PhD/T2724 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura - qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb - sahifasida (www.taqu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfiddinov Sadriddin

texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xodjayev Abbas Agzamovich

texnika fanlari doktori, professor

Berdiev Obloqul Boboqulovich

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O'zog'irsanoatloyiha” AJ

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura - qurilish universiteti huzuridagi DSc26/30.12.2019.T.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «27» aprel soat 10⁰⁰ da Arxitektura fakul'tetining majlislar zalida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent sh Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-v uy Tel.: (99871) 241-10-84; faks: (99871) 241-80-00. e-mail: devon@taqi.uz, taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot- resurs markazida tanishish mumkin. (№ 103 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100084, Toshkent sh, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi 9a-uy. Tel (99890) 372-71-94; faks: (+99871) 234-15.-11. e-mail: taqi_atm@edu.uz). faks: (+99871) 241-80.-00. e-mail: taqi_atm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 10-aprel kuni tarqatildi.
(2023 yil «27» yanvardagi 31-raqamli reestr bayonnomasi).

X.A. Akramov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi

texnika fanlari doktori, professor

A.T. Xotamov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi

texnika fanlari doktori, professor

B.A. Askarov

Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi vaqtda noyob binolarning qurilishida temirbeton qobiqlarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida katta oraliqli yopmalar xillaridan bir xil geometrik sirtga ega temirbeton va metall qobiqlar keng qo'llaniladi. Bunday qobiqlarni loyihalash va qurilishda qo'llash tahlili shuni ko'rsatdiki, qobiqlarni noyob inshootlar qurilishida qo'llash tuzilmalarning kichik hajmini ta'minlaydi. Shu jihatdan jumladan materiallar sarfi va qurish uchun mehnat xarajatlari tejamkorligini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda zamonaviy yirik o'lchamli binolarni qurish jarayoni ko'p jihatdan investitsion davrni qisqartirish, fan va texnika yutuqlarini joriy etishni jadallashtirish, qurilish konstruksiyalari va foydalaniladigan materiallar sifat va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada noyob binolarning yopmalari xarajatlarining asosiy qismini materiallar sarfi, qurishdagi mehnat sarfi tashkil qiladi, bu xarajatlarni kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilishning sanoat tarmog'ini rivojlantirish, ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq holda, noyob binolarni katta oraliqli konstruksiyalar bilan yopish muammosini hal qilish, qobiqlarning arxitekturaviy ko'rkam shakllarini joriy etish, ularning samaradorligini va qo'llashda ishonchligini ta'minlash, fazoviy tizimlarni qurishga mo'ljallangan hisoblash usullarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, xalq xo'jaligi rivojida muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillardagi yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, Farmonida "Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan montaj jarayonida o'zgaruvchan kuchlanish-deformatsiya holatining turli bosqichlarini baholash uchun eksperimental modellashtirish usuliga asoslangan fazoviy tizimlarni hisoblashning amaliy usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 martdagi PF-5963-sonli "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²gi Farmoni, 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashning birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 martdagi "O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5963-sonli Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yonalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs tejamlilik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Qurilish sohasida katta oraliqli fazoviy qobiq konstruksiyalar qo'llanilgan noyob binolarni xisoblash nazariyasi va kuchlanish - deformatsiyalanish holatlariga oid masalalarni tadqiq etish bilan xorijda A.A. Gvozdev, V.Z. Vlasov, I.E. Mileikovskiy, K. Xaydukov, O.D. Oniashvili, G.V.I. Trofimov, N.P.Abovskiy, V.S. Bartenev, P.G. Yermeev, A.S. Jiv, E.Z. Jukovskiy, Ya.Sh. Isxakov, V.I. Kolchunov, L.M. Lyudkovskiy, Yu.I. Nemchinov, V.S. Plevkov, Ya.F. Xlebnoy, A.A. Seytlin, Yu.V. Chinenkov, V.V. Shugaev, V.F. Shablyalar shug'ullanishgan.

Respublikamizda katta oraliqli fazoviy qobiq konstruksiyalar qo'llanilgan noyob binolarning kuchlanish - deformatsiyalanish holatlariga oid tadqiqotlar M.T. O'razboev, V.Q. Qabulov, Q.S. Abdurashidov, S.R. Razzoqov, Q.I. Ro'ziev, G.S. Fridman va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Oxirgi paytlarda bu sohaga salmoqli hissa qo'shgan olimlar, yillik izlanishlar natijasida katta oraliqli binolarda fazoviy tizimlardan foydalanish samaradorligini oshirish sohasidagi normativ bazani takomillashtirishga qaratilgan muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishdilar.

Shu bilan birga katta oraliqli fazoviy qobiq konstruksiyalar qo'llanilgan noyob binolarda montaj demontaj qilish jarayonida hosil bo'ladigan kuchlanish - deformatsiyalanish holatlarini tadqiq etish hamda yassi qobiq yopmalarning samarali konstruktiv yechimini yaratish hisob usularini ishlab chiqish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura - qurilish institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash, qurish, energiya samaradorligini oshirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" ilmiy tadqiqot mavzusiga va OTF-4-71 yillarda bajarilgan "Fazoviy va qobiq konstruksiyalarning zilzilabardoshlik nazariyasini rivojlantirishda chiziqsizlikni e'tiborga olish muammolarini yechish"(2017-2020) fundamental loyihasi hamda "Toshkent arxitektura qurilish instituti" va Fazoviy konstruksiyalar binolar va inshootlar zilzilabardoshligi ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyasi "Ilmiy birlashma" MCHJ hamda SamDAQU o'rtasidagi (2020-2025) yillarga mo'ljallangan hamkorlik shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qobiqlarlarni montaj elementlari yiriklashtirilgan usul bilan siyrak tayanchli havozali usullarini kombinatsiya qilib, katta oraliqli noyob binolar uchun samarali konstruktiv yechimlarni hamda montaj va tayanchlardan xoli qilish bosqichlarida qobiqlarning kuchlanish - deformatsiyalanish holatini tadqiq qilish, hisoblash va qurishning qulay usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

qurish bosqichlarida to'sinsimon va qobiq tizimlarining kuchlanish-deformatsiya holatining o'zgarishlarini tahliliy tadqiq etish;

montaj jarayonida modellashtirish usullarini qo'llash, fazoviy tizimlarning xavfsizligini ta'minlash muammosini tadqiq qilish va jamoat binolarini qurishda samarador texnologiyalarni qo'llash;

qobiqlarni har xil bosqichdagi ishini baholashda, samarali montaj, demontaj qilish usulini va modellashtirish usullarini ishlab chiqish;

qurish bosqichlarini hisobga olgan holda qobiqlarni hisoblash usulini ishlab chiqish, montaj jarayonida buzilish xavfsizligini ta'minlash;

montaj holatidagi katta oraliqli noyob binolarning, ustuvorligini, mahalliy buzilishini, yuk ko'tarish qobiliyatini va iqtisodiy samaradorligini ta'minlash;

Tadqiqot ob'ekti sifatida katta oraliqli noyob binolarning yig'ma temirbeton qobiq konstruksiyalari olingan.

Tadqiqot predmeti qurish holatidagi noyob katta oraliqli binolarning temirbeton qobiq konstruksiyalari uchun ishlab chiqilgan samarali yechimlarining kuchlanish-deformatsiyalanish holatini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida fizik modelashtirish usuli qoidalariga asoslangan katta oraliqli yassi qobiqlarning konstruktiv yechimlarning montaj, demontaj holatidagi kuchlanish-deformatsiyalanish holati baholangan, fazoviy tizimlar mexanikasi zamonaviy yutuqlardan qobiqlarni montaj jarayonidagi hisoblash usulini ishlab chiqishda va hisoblash natijalarini tahlil qilishda foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

katta oraliqli noyob binolarni xavoza tayanchli va elementlarini yiriklashtirish montaj usullarini kombinatsiya qilishga kuchlanish-deformatsiya holatining o'zgarishlarini inobatga oluvchi yangi samarali konstruktiv yechimi ishlab chiqilgan;

qobiqlarni montaj va tayanchlardan xoli qilishning kuchlanish-deformatsiya holatining o'zgarishlarini inobatga oluvchi samarali usul eksperimental aniqlangan;

qobiqning yiriklashtirilgan 3x18 m montaj elementining ishi har xil yuklash va tortqisini roslash jarayonida eksperimental tadqiq qilingan qobiqlarning montaj jarayonida uning kuchlanish-deformatsiyalanish holatini o'zgaruvchanligi e'tiborga oluvchi xavfsizligini ta'minlovchi momentli nazariyaga asoslangan hisoblash usuli ishlab chiqilgan;

katta oraliqli noyob binolarda qo'llanilgan qobiqlarning kontur zonasini va 3x6 m unifikatsiyalashgan silindirlik panellarini konstruksiyalash va qurish bo'yicha kontur zonasining kuchlanganlik holatini yaxshilashga olib keluvchi taranglashtirilgan armaturalarni qo'lla'h taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fazoviy qobiq konstruksiyalarning montaj jarayoninini fizik modelashtirish usulida tadqiq qilish natijasida amaliyot uchun tejimli yangi konstruktiv yechimi hamda hisoblash usullari, konstruksiyalarni montaj va demontaj qilishning samarali usullari ishlab chiqilgan;

konstruksiyalarni tashish, montaj qilish xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumnazariy xulosalar, qobiq konstruksiyalarining ish va montaj holatidagi ishonchliligi, deformatsiyalanishi qonuniyatlari, eksperimental modellashtirish usullariga asoslangan hisobiy va tajribaviy natijalarning o'zaro mos kelishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati montaj va demontaj bosqichlarida katta oraliqli noyob binolarning qobiq konstruksiyalar qo'llanilgan kuchlanish-deformatsiya holatini hisoblashning takomillashtirilgan usullarni, shuningdek, katta oraliqli binolarni hisoblash loyihalash va samarali qurilish usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy kombinatsiyalashgan montaj usullarini temirbeton qobiqlar uchun takomillashtirilgan konstruktiv yechimlarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ulardan foydalanish materiallar sarfini, ishlab chiqarish, montaj va demontaj qilish uchun mehnat xarajatlarini ularni qurish uchun ishlatiladigan metall jihozlarning og'irligi kamaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Katta oraliqli fazoviy qobiq konstruksiyalar qo'llanilgan noyob binolarning montaj jarayonini e'tiborga olingan natijalar asosida:

96x96 m tajribaviy noyob binoni loyihalash uchun qo'llanilganda har bir qurilajak obektlarning qurilish - montaj ishlari hajmiga bog'liq holda iqtisodiy samaradorligi yassi tipik konstruksiyalarni "O'zog'irsanoatloyiha" AJ qo'llanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022 yil 19-dekabrda 08-06/14056-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hozirda mavjud fazoviy qobiq tizimlarni montaj qilish texnologiyasiga nisbatan arzon konstruksiyalari yaratilgan;

mavjud fazoviy qobiq tizimlarni montaj qilish texnologiyasini qo'llash natijasida materiallar sarfi 25-41% ga, kamaytirildi "O'zshaharsozlik" LITI" Davlat unitar korxonasi joriy etildi, (O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022 yil 19-dekabrda 08-06/14056-sonli ma'lumotnomasi). Natijada hozirda mavjud qobiq tizimlarni montaj qilish texnologiyasiga nisbatan mehnat sarfini 26-33% ga, montaj uskunalari og'irligini 2,25-2,4 marta, konstruksiyalarning tannarxini 20-30% ga kamayishga erishilgan;

Dissertatsiya bo'yicha olingan ilmiy - amaliy tadqiqotlari natijalari Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti bakalavriyat va magistratura ta'lim yo'nalishlarida mutahassislik fanlarini o'tishda, BMI va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o'quv jarayonlariga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2022 yil 19-dekabrda 08-06/14056-sonli ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy raqobatbardosh muhandis - quruvchilarni, loyihachi - konstruktorlarni tayyorlash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston respublikasi Oliy atestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 1 ta monografiya, 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti ko'rsatilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan, inovatsiyalar va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalari asosida chop etilgan maqolalar shu bilan birga dissertatsiya tuzilishi va hajmiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Zamonaviy yirik o'lchamli binolarni qurish jarayonini tadqiq qilish tahlili**" deb nomlangan I-bobida qurilish jarayonida to'sinsimon konstruktiv yechimlarning va yassi temirbeton qobiq yopmalarning kuchlanish - deformatsiyalanish holati o'zgarishini e'tiborga olish bo'yicha yurtimiz va chet elda bajarilgan ilmiy, amaliy tadqiqotlar tahlili, eksperimental va nazariy modellashtirish tadqiqot metodini, montaj holatini baholashda qo'llanilishi bo'yicha olib borilgan ilmiy eksperimental tadqiqotlar tahlili, fazoviy tizimdagi binolarni montaj jarayonidagi konstruktiv xavfsizligini ta'minlash muommosi tadqiqoti tahlillari keltirilgan. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, tajribaviy loyihalash va bino inshootlarni qurish shuni ko'rsatadiki, kelgusida qobiq konstruksiyalarni konstruktiv yechimini rivoji asosan ularni montaj usulini takomillashtirish masalalarini yechishdan bog'liq.

Moskvadagi beton va temirbeton ilmiy tadqiqot instituti (NIIJB), Qurilish konstruksiyalari markaziy ilmiy-tadqiqot instituti (SNIISK), eksperimental va tipik loyihalash ilmiy-tadqiqot instituti MNIITEP, "Fazoviy konstruksiyalar binolar va inshootlar zilzilabardoshligi" ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasi Jomboy (Samarqand)dagi (FKBIZ) da o'tqazilgan tadqiqotlar tahliliga binoan katta oraliqli noyob binolarni yopish uchun qo'llaniladigan turli xil konstruktiv yechimlar orasida qobiqlar - egri chiziqli sirtidan iborat fazoviy tizimlar alohida o'rin tutishini ko'rsatdi. Qurilish yopmalarining samarali yechimlaridan biri sifatida qobiqlardan foydalanish bu sohada rejalashtirilgan maqsadlarga erishishga muvaffaqiyatli hissa qo'shishi mumkin. Hozirgi vaqtda qobiqlar mexanikasining rivoji shunday darajasiga yetdiki, fazoviy tuzilmalarni matematik modellar bilan hisoblash alohida yuqori malakali mutaxassislarning imtiyoziga aylandi. Jumladan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda qobiqlarni hisoblashning aniq usullari e'tiborga loyiq bo'lsada har xil turdagi qobiqlarning montaji uchun dasturni tuzish


juda murakkab ma'suliyati yuqori ser mehnatligini ta'kidlash kerak. Bunday holda, montaj jarayonida o'zgaruvchan kuchlanish-deformatsiya holatining turli bosqichlarini baholash uchun eksperimental modellashtirish usuliga asoslangan fazoviy tizimlarni hisoblashning amaliy usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda statik va dinamik yuklar ta'siriga qobiqlarni chiziqli hisoblash usullari ishlab chiqildi, lekin ularda konstruksiyalarni montaj va ekspulatatsiya holatlari yetarlicha hisobga olinmagan. Amaldagi me'yoriy hujjatlar "Yopma va orayopmalar" va "Qoidalar to'plamlarida" qobiqlarni montaj va ekspulatatsiya qilish holatlari yetarli darajada aks etirilmagan. Qobiqlarni qurish bosqichlarida va ekspulatatsiya holatiga o'tish jarayonida konstruksion materiallarning o'zgaruvchan ish holatlari va xususiyatlari bilan bog'liq muhim omillar e'tiborga olinmaydi.

Dissertatsiyaning **"Qobiqlarni samarali usullarda montaj va demontaj qilish jarayonidagi ishini modellashtirish"** deb nomlangan II - bobida modelashtirishning va qobiqlarning nazariy asoslari, qobiqlarning montaj va demontaj holati tadqiqoti qo'llanilgan fizik modelashtirish usuli keltirilgan.

Muallif tomonidan taklif qilingan naturaviy qobiqlarning konstruksiyasi, montaj bosqichida uning kuchlanish - deformatsiyalanish holatining o'zgarishi hamda taklif qilingan samarali montaj va tayanchlardan holi qilish (demontaj) usuli keltirilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, geometrik sirti tor, sfera va aylanish sirtini ko'chirish yo'li bilan hosil qilingan qobiqni meredianal va halqa yo'nalishida kesish yo'li bilan hosil qilingan bir xil o'lchamdagi yig'ma 3x6 m qobirg'ali silindirik panellarga ajratish tejamli hisoblanadi. Bir oraliqli binolarning kontur elementi, ustunlarga tayanuvchi qulay poligonal konstruksiya hisoblanib, u himoya to'sig'i va devor panellari va vitrajini berkitishga xizmat qiladi. Hosil qilingan konstruktiv yechimning barcha xususiyatlarini e'tiborga olib hisoblash ko'p hollarda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi. Bu holatda konstruksiyaning o'zgaruvchan montaj jarayonini tadqiq qilishda modelashtirish usulini qo'llash samarali vosita hisoblanadi.



1 - rasm. Oralig'i 96 m yassi qobiqlarning montaj bosqichidagi tadqiq qilingan konstruktiv sxemalari

Qobiq yopma qo'llanilgan noyob binolarning yangi konstruktiv yechimlarini ishlab chiqishda, nazariy va sinov tadqiqotlarini olib borishda, ularning mustahkamligi, ustuvorligi, bikrligi, yoriqbardoshligini baholash kam o'rganilgan murakkab tadqiqotlar sanalganligi tufayli montaj va ekspulatsiya jarayonida tejamli sanalgan modelashtirish usuli qo'llanilgan.

Eksperemental tadqiqotlar yirik o'lchamdagi masshtabi, M 1:4 va M1:10 modellar natijalarini naturaviy ob'ektlar tajribaviy qurilishida qo'llash orqali amalga oshirilgan (1 - rasm).

Bu konstruksiyalarda montaj va ekspulatsiya holatida ishlaydigan qobiqlar qo'llanilgan noyob binolarni tajribaviy loyihalash va qurishda keng ko'lamda qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishning aniq masalalari yechildi. Tadqiqot ob'ekti, naturaviy qobiqlar va ularning modellarining konstruktiv xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan. Tadqiqotlarimiz asosida temirbeton fazoviy konstruksiyalar modellarini sinash natijalarini naturaviy konstruksiyalarda qo'llash tajribasi tahlil qilingan, umumlashtirilgan va rivojlantirilgan.

Montaj jarayonida qobiqlarning kuchlanish - deformatsiyalanish holatini baholashda modellarga va naturaviy konstruksiyalarga tushadigan yukni materiallarning mustahkamlik xususiyatini e'tiborga olib aniqlaymiz.

$$q_m = \frac{q_H}{\alpha_R}; F_m = \frac{F_H}{\alpha_m^2 \alpha_R}; q_{m\ell} = \frac{q_H \ell}{\alpha_m \alpha_R}, \quad (1)$$

bu yerda q_m , $q_{m\ell}$, F_m – mos ravishda, model va q_n , $q_{n\ell}$, F_n - naturaviy konstruksiyaga tushadigan taqsimlangan, uzunlik bo'yicha va yig'ilgan yuklar. $\alpha_m = y_H / y_m$ - geometrik o'xshashlikning masshtab koeffitsiyenti; $\alpha_R = R_H / R_m$ - mustahkamlik bo'yicha masshtab koeffitsiyenti;

Fizik va geometrik chiziqsizlik masalalari yechilganda deformatsiya moduli taklifimiz bo'yicha kuchlanganlik holatidan bog'liq holatda quyidagi formulalardan aniqlanadi.

$$E' = f(\sigma, \varepsilon); E' = f(q, w) \quad (2)$$

(1) formulaga muvofiq qobiq modeliga tushadigan yuk quyidagicha aniqlanadi

$$q(x) = q = g + p + r_m, \quad (3)$$

bu yerda g - doimiy yuk, p - vaqtinchalik yuk, r_m – taranglashtirish yuki

bu yerda $r_m = (g+p)k$, $k = 0,1 - 0,15$ (hisobiy yukdan).

Taranglashtirishning optimal qiymati eksperemental tadqiqotlar natijasi asosida aniqlanadi. Elastiklik modulini e'tiborga oluvchi o'xshashlik koeffitsiyentini kiritib, naturaviy konstruksiyani deformatsiyasi, salqiligi va siljishi quyidagi formulalardan topiladi.

$$\varepsilon_H = \frac{\Delta f_H}{f_H} = \frac{\Delta f_M}{f_M} \cdot \frac{\alpha_m}{\alpha_R \alpha_E}; w_H = d_m w_M; u_H = \Delta \ell_H = \Delta \ell_M \frac{\alpha_m}{\alpha_R \alpha_E} \quad (4)$$




Konstruksiyadagi eguvchi moment, bo'ylama kuch, tortqidagi zo'riqish kuchi quyidagi formulalardan aniqlanadi.

$$M_n = M_m \alpha_m^2 \alpha_R; N_n = N_m \alpha_m \alpha_R; H_n = H_m \alpha_m \alpha_R; \quad (5)$$

bu yerda M_m , N_m va H_m – eguvchi moment, bo’ylama kuch va modeldagi zo’riqish kuchi M_n , N_n i H_m – huddi shuningdek naturaviy konstruksiyalarda. Yuqorida keltirilgan formulalar qobiqlar modelining eksperimental tadqiqotlari natijalarini tahlil qilishda montaj va ekspulatsiya qilish bosqichlarida, naturaviy o’lchamli konstruksiyalarning turli xil statik yuklarning qo’yilishi kombinatsiyasida ishlash holatlarini baholash uchun qo’lanildi. Muallif tomonidan taklif qilingan o’lchamlari 96x96 m, aylanish sirtining 124,8 m radiusda chizilgan tajribaviy qobiq konstruksiyasining montaj bosqichlari 2-rasmda keltirilgan.

1- Jadval

Tadqiqot qilingan qobiq va modellarining konstruktiv xususiyatlari


No	Qobiqlar, markasi	Eskiz	Masshtab, o'lchami, m	Tadqiqot maqsadi
1.	Yon elementlari manfiy gauss egriligigiga ega birikma qobirg'ali qobiq M-1		M 1:10 4,8x4,8 m	Montaj yuklanishidan kuchlanish – deformatsiyalanish holatlarini tadqiq qilish. Mustahkamlik, ustuvorlik, bikrlilik, yoriqbar-doshlik va xavfsizligini taminlash. Samarali montaj va demontaj usullarini ishlab chiqish.
2.	Yon elementlari manfiy gauss egriligigiga ega birikma qobirg'ali qobiq M-2		M 1:4 12x12 m	Montaj, demontaj va ekspulatsion yuklardan kuchlanish-deformatsiyalanish holatlarini tadqiq qilish.
3.	Musbat gauss egriligigiga ega yassi qobirg'ali qobiq		96x96 m	Har xil qiymatdagi montaj va demontaj yuklarining ta'siridan kuchlanish-deformatsiyalanish holatlarini tadqiq qilish. Qobiqni samarali montaj va demontaj holatlarini aniqlash.

Qobiqning montaji muallif taklifiga binoan xavoza ustunli usulni panellarni oldindan arkasimon blokka yiriklashtirish kombinatsiyalashgan usulini qo'llash orqali amalga oshirilgan. Bu holatda 3 dona 3x6 m panellari yiriklashtirilgan arkasimon blok 3x18 m, siyraklashtirilgan 18x18 m montaj tayanchlariga o'rnatilgan kvadrat yacheykali bikrlilik to'sinlariga montaj qilingan. Qobiq demontajidan keyin bikrlilik to'sinlari doimiy qoldiriladi va uning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Huddi shunday qobiqning chetki oralig'i 12 m kontur

zonaları ham panellari yiriklashtirilgan 3x12 m arkasimon blokdan montaj qilingan. Panellarning pastki tomonidan shprengel tipidagi inventar tortqi joylashtirilgan. Panellarning bo'ylama qobirg'alari o'zaro choklari yaxlit betonlanmagan payvand detalari yordamida biriktirilgan.

Shprengelli tortqining avtorlari A.V.Shapiro (Sankt-Peterburg, PI-1) va V.F.Shablya Moskva MNIITEP, va D.M.Botirovlar (FKBIZ, Jomboy Samarqand) konstruktiv takomilashtirganlar.

Masshtabi 1:10 bo'lgan M-1 modelining yiriklashtirilgan modeli 1,8m; M-2 masshtabi 1:4 0,75x8,5 m va M-3 elementni sinash, naturaviy masshtabi 1:1 konstruksiyaning yiriklashtirilgan 3x18 m elementni sinash etarli darajada mustahkamlik, bikrlilik va yoriqbardoshligiga ega ekanligini ko'rsatadi (3-rasm).




2-rasm. 96x96 m katta oraliqli tajribaviy noyob binoning plitalarni arkasimon blokka yiriklashtirish usulida montaj qilish bosqichlari: 1- qumli tayanchdagi montaj ustuni; 2 – o'zaro kesishgan bikrlilik to'sinlari; 3- arkasimon plitalari yiriklashtirilgan montaj bloki; 4- yiriklashtiruvchi uskuna (stend).

Qobiqlarni montaj, tayanchlaridan xoli qilish va eksploatatsiya holatida statik yuk ta'siridagi ishi ikki xil modellarda o'rganildi (3-rasm). Yassi qobirg'ali qobiqning montaj holatini tadqiq qilish (2-rasm, 1-jadval) muallif tomonidan taklif qilingan panellari yiriklashtirib yig'ish kombinatsiyalashgan usulini to'rt tarafdin unifikatsiyalashirilgan bir xil o'zaro tutashgan bikrlilik to'sinlarini oraliqlari 18x18 m bo'lgan montaj ustunlariga o'rnatish yo'li bilan amalga oshirilgan.

Bu holatlar ikki bosqichda amalga oshirilgan.

1. Qobiq to'liq montaj qilingan. Ularning 3x18 m yiriklashtirilgan qobirg'ali panellardan iborat arkasimon bloklari oralig'i 18 m bikrlilik to'siniga, ular esa oralig'i 18x18 m montaj ustunlariga o'rnatilgan. Panellar choklari yaxlitlanmagan. Bu holatda yiriklashtirilgan element o'z o'zini ko'taruvchi konstruksiyadir. Panellar orasidagi choklar betonlangach va mustahkamlikga erishgach, kuchlanish - deformatsiyalanish holati o'zgarmaydi.

2. Qobiqni montaj, tayanchlaridan holi qilishda, montaj tayanchlari va vaqtinchalik tortqilar olinganligi tufayli kuchlanish-deformatsiyalanish holatlari o'zgaradi. Vaqtinchalik bog'lovchilarning olinishidan xosil bo'lgan zo'riqishlarni olingan tayanchlarning qarshi yo'nalishda qo'yilgan tayanch reaksiyalariga teng deb qarash mumkin. Ushbu holatdan farqli ravishda qobiqlar havozali ustunli usulda tayanchlardan holi qilinganda bu holatda qobiqlar yuzasi bo'yicha tekis taqsimlangan yuklar ta'siridagidek bo'ladi.



3-rasm. Yon elementlari manfiy gauss egriligiga ega bo'lgan qobiqlarda uskunalarini joylashtirishning konstruktiv va montaj sxemasi: 1 - 16 - montaj bloklari (raqamlar, tortqilaridagi xoli qilish ketma - ketligiga mos keladi); 17, 18 montaj to'sinlari va ustunlari.

Tadqiqotlarning birinchi bosqichida alohida turuvchi markaziy va yon elementlari manfiy gauss egriligiga ega qobiqlar o'zaro biriktirilmagan.


Qobiqlarning xususiy og'irligi $1,7 \text{ kN/m}^2$ bilan yuklangan kuchlanish-deformatsiyalanish holatlari o'rganildi. So'ngra ikki xil usulda uskunalaridan xoli qilish holatlari o'rganildi. Birinchi usulda avval montaj tayanchlari va to'sinlari tushirildi so'ngra montaj tortqilaridagi zo'riqish kuchlari olindi, Ikkinchi usulda avval montaj tortqilaridagi zo'riqish kuchlari olindi, so'ngra montaj tayanchlari va to'sinlari tushirildi. Tayanchlardan holi qilish variantlari ketma-ket 7- siklda takroran bajarildi. Har bosqichdagi kuchlanish-deformatsiyalanish holatlari tahlil qilindi. Birinchi usulda tayanchlardan holi qilishda montaj tayanchlari va to'sinlari tushirilganda markaziy va chetki qobiqlar tortqilaridagi zo'riqish kuchlari 21-34% ga kamayadi. U tortqilarni olishni sezilarli darajada yengilashtirdi. Bunday holatda qobiq panellari qovurg'alarida qulay kuchlanganlik holati kuzatildi.

Montaj tayanchi va to'sinni tushirishda markaziy qobiqning salqiligi 2,9 mm yoki oraliqning 1/1150 qismini, chetki qobiqlarda 1,9 mm yoki oraliqning 1/1786 qismini tashkil qildi. Demontaj jarayonidagi tortqidagi zo'riqish kuchini olish

markaziy va yon qobiqlardagi mavjud egilishlarni mos ravishda 1,2 va 1,15 barovariga oshishiga olib keldi.

Shunday qilib tadqiqotlar natijasi asosida qobiqlarni tayanchdan holi qilishda dastlab montaj tayanchlari va to'sinlarini tushirish, so'ngra esa tortqilardagi zo'riqish kuchini olish samarali usul ekanligi taklif qilindi. Huddi shu kabi natijalar oralig'i 12 m birikma qobiqning tadqiqotida ham olingan (3-rasm).

Tadqiqotlarning ikkinchi bosqichida umuiy to'rta arkasimon diafragmalarga o'rnatilgan o'zaro yaxlit birikkan markaziy va yon elementlari manfiy gauss egriligiga ega qobiqlarda xususiy og'irligi yuki 1,7 kN/m² bilan yuklangan qobiqlarning kuchlanish - deformatsiyalanish holatlari o'rganildi (4-rasm).



4-rasm. Elementlari yaxlit birikkan 4,8x4,8 m brikma qobiqning montaj va demontaj bosqichida salqiligining o'zgarishi. a - qobiqni montaj yuki bilan yuklashda va demontaj bosqichida salqiliklarning o'zgarishi. b,v- o'rta diafragmaning montaj tortqilari va to'sinlari yo'nalishidagi salqiligi. (1, 2) qavsdagi tayanchdan xoli qilish (demontaj) variantlari.

Ikki variantda birikma qobiqni tashkil qilgan elementlarida dastlab, markaziy, so'ngra yonidagi qobiqlarida o'tkazilgan montaj uskunalaridan holi qilish tadqiqotlarining natijalarini solishtirish tahlili shuni ko'rsatadiki birinchi variant qo'llanilganda qobiq va uning diafragmalari o'rtasidagi salqiliklar mos ravishda 1,65 va 1,4 marotaba kamayganligini ko'rsatadi. Huddi shunday gorizantal siljishlar har tarafda joylashgan chetki qobiqlarda 1,15-1,27 marta kamaytirilganligini ko'rsatadi.

Shuningdek bo'ylama kuch va eguvchi momentlarning minimal qiymati birinchi variant bo'yicha montaj uskunalardan holi qilishda kuzatilgan u o'z navbatida bu usulni qo'llashning samaradorligini ko'rsatadi.

Modellashtirish usuli qo'llanilib katta oraliqli noyob binolarni havoza - 18x18 m siyrak ustunlarda montaj qilish usuli bilan, zamonaviy yig'ma panellarni 3x18 metrga yiriklashtirib montaj qilishning kombinatsiyalashgan samarador yangi konstruktiv yechimi yaratilgan.

Bu yechimli qobiq konstruksiyalar samarador usulda montaj qilishning, uskunalardan xoli qilish usuli ishlab chiqilgan.

Taklif qilingan usulning texnik iqtisodiy samaradorligi asoslangan. Ushbu montaj usuli taklif qilingan 96x96 m qobiq uchun qo'llanilganda, konduktor usulida montaj qilishgan nisbatan mehnat sarfi 26% ga, montaj uskunalari og'irligi 2,4 marotaba kamaytirilgan. Amaldagi havoza ustunli usul qo'llanilganda mehnat sarfi 33% ga, montaj uskunalari og'irligi 2,25 marotaba kamaytirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yassi qobiq yopmalarni qurish jarayoni e'tiborga olingan hisob usuli”** deb nomlangan III - bobida - eksperimental modelashtirish usuliga asoslangan qurish jarayonida qobiqlarning konstruktiv va kuchlanish-deformatsiyalanish holatini o'zgaruvchanligini e'tiborga oluvchi hisob usuli ishlab chiqilgan.

Muallifning qobiqlarning montaj jarayonini modelashtirishga va momentli nazariyasiga asoslangan hisob usulida, panellari yiriklashtirilgan arkasimon blokning hisob usuli, montaj bosqichida qobiqlarning ish holati va hisoblash sxemasi o'zgaruvchanligini e'tiborga oluvchi sonli eksperiment natijalari keltirilgan.

Qobiqlarning momentli chiziqsizlik nazariyasiga asoslangan, bazi gipoteza va shartlarni kiritish natijasida tizimning birinchi muvozanat tenglamasi chiqarilgan

$$D\nabla^2\nabla^2w - \nabla_k^2\varphi = q + L(w, \varphi) \quad (6)$$

bu yerda D – silindrik bikrlilik; ∇^2 , ∇_k^2 - Laplas, Vlasov operatorlari.

Tegishli o'zgartirishlardan keyin salqilik va kuchlanish funksiyalari orqali ifodalangan deformatsiyaning uzluksizlik tenglamasini olamiz.

$$\frac{1}{Eh}\nabla^2\nabla^2\varphi + \nabla_k^2w = -\frac{1}{2}L(w, w) \quad (7)$$

Shunday qilib, kuchlanish-deformatsiyalanish holatini yassi qobiqlarning aralash usuldagi chiziqsiz nazariyaga asoslanib tadqiq qilishda ikki diferensial tenglamani integrallash orqali amalga oshiriladi.

$$\begin{aligned} D\nabla^2\nabla^2w - \nabla_k^2\varphi &= q + L(w, \varphi) \\ \nabla_k^2w + \frac{1}{Eh}\nabla^2\nabla^2\varphi &= -\frac{1}{2}L(w, w) \end{aligned} \quad (8)$$

bu yerda $w(x, u)$ va $\varphi(x, u)$ – izlanuvchi ikki funksiyalar qobiqning chegaraviy shartidan aniqlanadi. $L(w, \varphi)$ va $L(w, w)$ - chiziqsiz operatorlar.

Yassi qobiqlarni fizik, geometrik chiziqsizliklarni e'tiborga olib montaj holatlarini hisoblashda trigonometrik qatorlardan foydalanamiz.

Keltirilgan (1-8) formulalardan foydalanish murakkab hisoblash jarayoniga olib keladi. Shu sababli hisoblarni parametrlari me'yorlashtirilgan jadval holatiga keltirilgan usuldan foydalanamiz.

Membiranalali (bo'ylama) zo'riqishlar

$$N_i = qR_1 \bar{N}_i; S_i = qR_2 \bar{S}_i; (i = 1, 2). \quad (9)$$

Momentli zo'riqishlar

$$M_i = qS^2 \bar{M}_i; H_i = qS^2 \bar{H}_i; (i = 1, 2). \quad (10)$$

Siljishlar

$$u = \frac{qR_2 S}{Eh} \bar{u}; \vartheta = \frac{qR_2 S}{Eh} \bar{\vartheta}; \omega = \frac{qR_2^2}{Eh} \bar{\omega}. \quad (11)$$

